

TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan

№ 39 (66320)
2001 yil 28 sentyabr, juma

Sotuvda erkin narxda

Kuzni kuzatib tursangiz sehergar tabiatning yaratuvchanligiga lol qolasiz. Daraxtlardagi barglar ko'k, qizg'ish, sap-sariq bo'lib ko'zni qamashtiradi. Bu faslda yana bir hayajonga soladigan kun bor. Bu kunda ustoz va murabbiylarni qutlaymiz.

Ota-onani ulug'lashni, Vatanni ko'z qorachig'idek saqlashni, tabiatni asrashni, insonlarga mehri bo'lishni avvalo sizlardan o'rgandik aziz MUALLIM! Ko'nglimizga osmon kabi tiniqlikni ham, bag'rimizga quyosh kabi yorug'likni ham jo aylagansiz. Qalbning go'zal tuyg'ulari qachon uyg'onishini bilasizmi? Yoki mehr yurak qoniga aylanib, hayajonda sizni sog'ingandachi? Rostini aytsam, bugun men maktabga dars tayyorlamay kelgan o'quvchisini koyigan o'qituvchimni ham... juda-juda sog'indim. O'jar o'qituvchilar bilan kelisholmay haftalab maktabiga qatnamagan yoki birgina gapini deb boshqa maktabga o'tib ketgan qaysargina bolalarni ham sog'indim. Xotiramizda baribir EZGULIK degan mehr ummonni o'stirgan sodda qalb


MILLATNING JON TOMIRISIZ MUALLIM

muallimlar! Bu kun sizlarning poyingizga alvon-alvon gullar to'shaymiz! Bu qalb gullarini umringizga, hayotingizga beraylik!-, deymiz.

O'qituvchilik sharaflilik kasb ekanligini ustoz bo'lganimda yanada aniqroq bildim.

Ammo hamma ham ustoz bo'lavermas e k a n d a . . . Ustozlik mehri daryo insonlarda ko'proq deb o'ylayman. Bo'lmasa uyi to'la bola tashvishi, r o ' z g ' o r u yumushlaridan

ortib maktabga toza qalb, ochiq chehra bilan kirib kelishning o'zi ustoz uchun matonat emasmi? Biz esa ba'zan guldek go'zal qalbingizni beboshliklar ichra xafa qilardik. Kechirim so'rashni esa or deb bilardik. Shunday paytlarda ham



yuragimizga hokim bo'ldingiz. So'zlagan so'zimizga, savol to'la ko'zimizga mehr bilan boqdingizda, g'uborlarni quvdingiz. Siz ana shunday onamiz, otamiz kabi sadoqat bilan

o'sgan millatning jon tomirisiz.

Bolalik xotiralarini eslasam, qog'oz, qalam yetmaydi. Chunki bolalikning o'zi bir dunyo. Dunyoni esa qog'ozga jamlab bo'lmaydi. Lekin mehrni mushtdekkinaga yuragimizga olam qilib joylay olamiz. Demak, EZGULIK ko'kka bo'y cho'zib yashashni biladi. Shuning uchun ham o'jarmi, qattiqqo'limi ustozlarda mehr bog'i yashnab turadi. Bularning zamirida ustoz yaratgan bog'ning hosillari yaxshilik bo'lib elga, yurtga xizmat qiladi. Jamiyatning barcha jabhalarida ustozlar mehnati ulkandir.

Ustozlar! Men sizlarni kuz faslidagi go'zalliklarga o'xshatgim keladi. Farg'ona viloyati, Uchko'prik tumanidagi 9- o'rta maktabning barcha fidoiy o'qituvchilariga ta'zim aylarkanman, chekka viloyatlarda beminnat mehnatlari bilan jamiyat rivojiga munosib ulush qo'shib kelayotgan sahovatu samimiyatga to'la ulug' ustozlarga bardosh tilayman. Bu bardoshda mehr qorishiq, sehr bisyor...

Ustoz mashaqqatini xus qilib...

Ma'mura MADRAHIMOVA

MENING USTOZIM

Bugun qo'lga olib qalamni,
Sevinchimni bayon etaman.
Go'yo nurga cho'mgan olamning,
Sinoatin anglab yetaman.
Quyosh bo'lib zarrin nuri-la,
Murg'ak qalbni asr aylagan.
U oy bo'lib qorong'u tunda,
Nigohlarin yerga boylagan.
U buloqdir, qaynar buloqdir,
Obihayot tirik jon uchun.
U osmondir mehr bog'ida,
Barcha a'lo gullardan ustun.
Udir mening qalbi quyoshim,
Mehrlarning makoni bo'lgan.
Udir mening aziz yo'ldoshim,
Shodligimdan quvonchga to'lgan.
O'ng qo'limni qo'yib ko'ksimga,
Boshim egib qilaman ta'zim.
Unutmaymiz o'gitlaringiz,
Qalb qo'ringiz, mening ustozim.
Qutlug' bo'lsin, bayram muborak,
Baxtimizga sog' bo'ling doim.
Lablaringiz quvonchdan kulsin,
Sizga umr bersin Xudoyim!

Nodira ERGASHEVA,
Toshkent viloyati, O'rta
Chirchiq tumanidagi 6-Biznes
kolleji talabasi.

XIJOLATDAMAN...

Mustaqilligimiz sharofati bilan biz yoshlarga juda keng imkoniyatlar yaratilyapti. Yangi-yangi litseylar, kollejlari, hunar maktablari tashkil qilinib, ularda bilim olishimiz uchun barcha shart-sharoitlar muhayyo qilingan. Xo'sh, biz yoshlar-chi, bunday g'amxo'rliklarga har doim ham munosib bo'lolyapmizmi? To'g'ri, bilimga intiluvchan, izlanuvchan, odobu axloqda tengdoshlariga namuna bo'ladigan yoshlarimiz juda ko'p. Lekin, sholi kurmaksiz bo'lmaganidek...

Har kuni o'qishga ketaturib, avtobus, trolleybus va metrolarda tengdoshlarimni ko'p kuzataman. Hali transportlarning eshiklari ochilib ulgurmay, o'zlarini ichkariga uradilar va tezda bo'sh o'rinlarga o'tirib olishning payida bo'ladilar. Keksa yoshli otaxonu onalarni, yosh bolali ayollarni chiqib qolishsa, go'yoki ularni ko'rmaganga oladilar. Qo'llariga kitob olib, muk tushib o'tiraveradilar. Shunisi achinarliki, ular hattó ko'zlarini ham yashirmaydilar. Ular uchun men xijolat bo'lib ketaman.

Ahror AHMEDOV,
S.Sirojiddinov nomli akademik litseyning
1-bosqich o'quvchisi.

SUYANCH BO'LGIN

Chin farzandman mening o'zim,
Ota-onang qutlug' so'zin,
Ona Vatan nonin-tuzin
Desang, tingla muallimni.

Kelajakni buyuk quray,
Yurtni yana suyuk ko'ray,
Davronini dildan suray
Desang, tingla muallimni.

O'sib, o'zbek - o'zligingni,
Mard, tanti, bir so'zligingni,
Doim yorug' yuzligingni
Desang, tingla muallimni.

"Ustoz - ulug'!" degan pirmi,
Ya'ni, Temur, Shoh Boburni,
Yassaviy-yu Xondamirni
Desang, tingla muallimni.

Sog'lom avlod Istiqlolga,
Hur Vatanga zo'r suyanchdir.
Shunday suyanch bo'lay desang,
Ko'proq tingla muallimni!

Yusuf BERDIYEV.

AKAMDEK BO'LAY DEYMAN

Siz Mahmudjon Azimovni taniysizmi? "Tong yulduzi" da maqola, she'r va xabarlar bilan faol qatnashib kelayotgan bolani-da. U mening akam bo'ladi. Akamga juda havasim keladi, maktabda o'qishlari ham a'lo, uning sha'niga faqat maqtov gaplar aytishadi. Sinflarida ustozlarimiz bayramiga atalgan kecha uyushtirib, mualliflik qilyaptilar.

Men ikkinchi sinfda o'qiyman. Bu yil bizga rus tili, ingliz tili kabi yangi fanlar o'qitilyapti. Ularni o'zlashtirishimga ham akajonim ko'maklashyaptilar.

Akamga havas qilib, men ham maqola yozishga ahd qildim. Unga baho berish, sizdan aziz tengdoshlarim. Fursatdan foydalanib, ustozim Mahmuda opa Rahimberdiyevani, hamda barcha ustozlarimizni ayyomlari bilan samimiy qutlayman.

*Mansurjon SOBITOV,
Shayxontohur tumanidagi 169 -
o'rta maktabning 2-sinf
o'quvchisi.*

FAROVONLIK TILAYMAN

*Jahonda bo'lmasa muallim agar,
Hayot ham bo'lmasdi bu qadar go'zal.
Abdurahmon Jomiy.*

Ha, ustoz hayotning mo'tabar chirog'idir. Qanchadan-qancha mashaqqatlarni yengib, o'zida bor bilimni o'quvchilarga singdira olishi kerak. Mana, bu yil men ham Pedagogika kollejining talabasi bo'ldim. Bu pedagogik hayotga qadam qo'ydim, degani. Nasib qilsa, keyin oliy o'quv yurtiga o'qishga kirib, mukammal muallim bo'lishga harakat qilaman. 1 oktyabr - O'qituvchilar bayrami bilan barcha ustozlarni chin dildan qutlayman. Ularning sharaflari ishlariga omad, o'zlariga sog'lik, farovonlik tilayman.

Samixa MIRZAMUHAMEDOVA.

"ENG YAXSHI TARBIYAVIY SOAT"

Mana bir necha yildirki, 1 oktyabrni "O'qituvchilar kuni" sifatida keng tantana qilib kelyapmiz. Barcha maktablarda bo'lgani kabi bizning G'ulommahmud-Abdullayev nomli 22-o'rta umumta'lim maktabida ham ustozlarimiz ayyomiga qizg'in hozirlik ko'rilyapti. 7-8-sinf o'quvchilari 10-sinf o'quvchilari hakamligida "Eng yaxshi devoriy gazeta" tanlovi, 5-6-sinf o'quvchilari esa 9-sinf o'quvchilari hakamligida "Eng yaxshi tarbiyaviy soat" tanlovlarini o'tkazyaptilar. Barchamiz a'lo baholarimiz, namunali xulqimiz bilan ustozlarimizni mamnun etish niyatidamiz. Fursatdan foydalanib, sevimli ustozlarim Umida Nosirova, Gulizaynab Qoldibekova, Shahnoza Mirzaliyeva, ijodiy ishlarimda ko'mak beruvchi ustozim Dilorom Abdukurimovalarni ayyomlari bilan samimiy qutlayman. Dilimdagi barcha ezgu niyatlarim - ularga!

*Nafisa ABDUKARIMOVA,
Toshkent tumanidagi
G'Abdullayev nomli
22-maktabning 9-sinf
o'quvchisi.*

USTOZLARNI SHARAFLAYMIZ

МЕН ХАМ МУАЛЛИМ БЎЛАМАН

Бизда ҳам зўр муаллимлар бисёр. Ишонмасангиз, мактабимизга келиб билимимизни бир синаб кўринг. Тўғри, ҳозир пахта мавсуми. Бироқ асосан далада бўлсақда, дарс тайёрлашни қанда қилмаймиз. Ким ҳам биринчи чоракни паст баҳолар билан яқунлашни хоҳлайди? Албатта ҳеч ким. Демак, вақтида ўқиб, муаллим билан ўз билимини ўртоқлашган ўқувчи албатта келажакда яхши одам бўлади. Менинг ҳам ниётларим бисёр. Насиб қилса, олий ўқув юртида ўқиб, ўрганиб келажакда ўз мактабимда ўқитувчи бўлиб ишламоқчиман. Устозларим берган билимни оқламоқчиман. Бугун эса уларни чин дилдан табриклайман. Биз шогирдлар бахтига соғ бўлинглар, устозларим.

*Мадина ҚҮЧҚОРОВА,
Наманган вилояти,
Чортоқ туманидаги
31-мактабнинг
8-синф ўқувчиси.*

СЕВИМЛИ НАШРИМ МЕНИНГ

Менинг исмим Шаҳноза. Ёшим каттароқ бўлса ҳам ҳар йили фақат "Тонг юлдузи" газетасига обуна бўламан. Чунки у менинг энг сеvimли нашрим, болалигимни эслатиб туради. Ундаги мақола, хабар, шеър ва ҳикояларни мароқ билан ўқиб бораман. Меҳрибон устозларим Фарҳод ака Султонов ва Мухтабар опамни касб байрамлари билан айнан мана шу газета орқали муборакбод этишни хоҳладим. Уларга узок умр, мустаҳкам саломатлик тилайман.

*Шаҳноза ОЙДИНОВА,
Алишер Навоий номидаги Республика
Нафис санъат лицейининг 10-"Г" тарих
синфи ўқувчиси.*

КУЙЛА, ДИЛКАШ ДУТОРИМ

Дутор наволари сизни ҳам чулғаб олган дамлар бўлганми? Мен эса унинг куйларига маст бўламан десам муболаға бўлмас. Шунинг учун ҳам мана уч йилдан буён дуторчилар тўғарагига қатнашаман. Устозим Наргиза опа бизга «Муножот», «Янги тановар», «Қойилман», «Гилос» каби кўпгина мусиқаларни чалишни ўргатади. Ундан ташқари тарих тўғарагига ҳам қатнайман. Унда биз тарих зарварақлари ҳақида баҳс юритамиз, билимимизни мустаҳкамлаймиз. Мен қимматли вақтларини аямай, биз билан мунтазам шуғулланадиган устозларимни касб байрамлари билан чин юракдан табриклайман.

Наргиза МУҲИДДИНОВА, Тошкент шаҳар, Акмал Икромов туманидаги 116-мактабнинг 5-синф ўқувчиси.



UMRINGIZ BOQIY BO'LSIN, AZIZ MUALLIM

Ustoz - naqadar ulug'vor so'z. Ta'riflashga til ojiz. Har bir inson ta'lim bergan aziz ustozlaridan qiyomatli qarzdor bo'ladi. Ayniqsa, birinchi bor alifboni o'qishni, qalam ushlashni o'rgatgan aziz inson birinchi muallimdir. Ul zot inson xotirasida o'chmas iz qoldiradi va abadiy yashaydi.

Har gal birinchi qo'ng'iroq jaranglagan kuni jajji bolalarning birinchi bor maktab ostonasini xatlaganini, ularni bir olam umid bilan yetaklab ketayotgan ustozni ko'rib dilim allanechuk bo'lib ketadi. Chunki yaxshi niyat bilan maktabga ilk bora kelgan o'quvchi uchun uning birinchi ustozini xaloskordek ko'rinadi ko'ziga. Nimaiki gapi bo'lsa, dilidan ne kechsa barini ustozga "chaqadi". Bu ham ajib bir davr.

O'zinning birinchi ustozimni, barcha ustozlarimizni, mehri daryo murabbiylarni bayramlari bilan tabriklab, ulug'vor va mas'uliyatli ishlarida zafarlar tilayman. Biz sizday insonlar borligidan faxrlanamiz va doimo sizga ta'zim qilamiz.

*Nazokat UMAROVA,
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi
200-maktabning 9-sinf o'quvchisi.*

ОҚИЛ ШОГИРД

Катта ишонч билан сенга мактуб йўллаяпман қадрли газетам "Тонг юлдузи". Мен ҳар йили сенинг обуначинг бўламан. Тенгдошларим ижодини ўқиб бораман. Тўғриси айтсам, газет орқали машқларимни тартибга соламан. Узимча қофиясини, вазнини, бўғинини тўғри ишлатишга ҳаракат қиламан. "Адабиёт назария" сидан шулар ҳақида анчагина маълумот олдим. Сенинг саҳифаларингдаги шеърларни ўқиб, мавзу ранг-баранг бўлиши мумкин эканлигини билдим. Мен сени ўзимга устоз деб биламан. Сенинг юзингни ерга қаратмайдиган оқил шогирд бўлишга ҳаракат қиламан.

*Хуршид ХОЛОВ,
Бухоро вилояти, Ғиждувон туманидаги 62-иқтидорли болалар лицейининг 6-синф ўқувчиси.*

ОРЗУ УМИДЛАР ҚАНОТИДА

Ўқув йили бошланганига кўп фурсат бўлгани йўқ. Энди барча фикрлар фақат билим олиш, аъло баҳоларда ўқиш, бувижону бобожонларимиз, дадажону онажонларимиз йўлларида

бориб, келажакда ўз Ватанига хизмат қиладиган инсон бўлиб етишишга қаратилишни керак деб ўйлайман. Чунки ҳар бир инсон бу дунёда орау умидлар билан япайди. Мен "Тонг юлдузи" газетаси орқали Ғиждувон азим шаҳрида истиқомат қиладиган бобожоним - Очил Каримовлар оиласини, бобожоним Нажмиддин Жўраевлар оиласини, устозларимни, қолаверса "Тонг юлдузи" газетаси ходимларини ўқитувчилар куни билан оила аъзоларим номидан чин қалбимдан табриклайман. Қалбларидagi ҳар қандай эзгу ниётлари амалга ошишини Оллоҳдан сўраб қоламан. Дунёдаги болажонлар ҳамиша соғлом, бақувват бўлиб, ўз ота-оналарининг бағрида ўсиб-улғайиб юришларини тилаб қоламан.


*Зулфизар
КАРИМОВА,
Тошкент шаҳар,
Миробод туманидаги 60-мактабнинг 5-"Д" синф ўқувчиси.*



Еш табиатиунослармиз

LITSEYIM - FAXRIM MENING

Biz bu yil TEAI qoshidagi Akademik litsey talabalari bo'ldik. Bundan juda xursandmiz albatta. Ko'tarinki kayfiyat, zo'r g'ayrat bilan o'qishlarni ham boshlab yubordik. Ilk taassurotlarimiz yomon emas, litseydagi shart-sharoitlar bizga juda yoqdi. Ayniqsa, ustozlarimizning mehribonchiliklarini aytmaymiz?! Yangi o'quv yilining boshlanishi hamda mustaqilligimizning 10 yilligiga bag'ishlab o'tkazgan tantanamizdan olgan bir olam taassurotlarimiz hamon qalbi bizni to'liqlantiryapti. O'zbekistonimiz bayrog'i tantanali ravishda davraga olib kirildi. Davlatimiz madhiyasi sadolari ostida yuksakka ko'tarilgan bayrog'imizning xilpirashiga havas bilan boqdik. Vatanimiz tarixi, bugungi kuni haqida «so'zlovchi» videolavhani zo'r qiziqish bilan tomosha qildik. So'ngra zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlangan sinfxonalarida aniq fanlar, iqtisod va ijtimoiy gumanitar yo'nalishdagi fanlarni o'rganishga astoydil kirishib ketdik. Bilimlarimiz reyting asosida baholanib, o'zlashtirish darajamiz har yarim yilda o'rganib boriladi. Eng yaxshi ko'rsatgichga erishgan



o'quvchilarga maxsus stipendiya berilar ekan.

Ustozlarimiz bayrami shukuhi kezib yurgan ayni kunlarda litseyimiz haqida yanada ko'proq narsalarni bilgimiz kelib, direktorimiz -O'zbekiston xalq o'qituvchisi Roza opa

Bo'ronova bilan suhbatda bo'ldik:

- Litseyimiz haqida gap ketganda, avvalo, o'quvchilarga puxta bilim berib kelayotgan ustoz - murabbiylarimiz haqida gapirishni istardim. Safimizda ilmiy darajalari yuqori bo'lgan oliy toifali o'qituvchilarimiz talaygina. Ayni kunlarda bayramiga qizg'in hozirlik ko'ryapmiz. Biz bu ayyomni bir hafta avval boshlab yubordik. Oldindan tuzilgan rejamizga asosan 24 sentyabr kuni "Sizni ardoqlaymiz aziz ustozlar!" haftaligining ochilishi bo'lib o'tdi. 25 sentyabrda "Mening sevimli ustozim" mavzuidagi insholar ko'rigi o'tkazilib, unda har bir guruhdan bittadan o'quvchi ishtirok etdi. 26 sentyabrda "Ustozim mening tasavvurimda" deb nomlangan rasmlar ko'rigi uyushtiril. 27 sentyabrda o'quvchilarimiz futbol musobaqasida bellashdilar. Yana "Ustozim gul kabisiz" ekibanolar ko'rigi ham bo'lib o'tdi. Tadbirimizning eng asosiysi ertaga, 29 sentyabr kuni o'tkaziladi. Erta tongda ustozlarimizni shogirdlari guldastalar bilan kutib olishadi. So'ngra ular gilam to'shalgan yo'laklardan litseyga kirib boradilar. Litseyimiz qoshidagi "Sharq yulduzi" radiostansiyasidan ustozlarga atalgan tabriklar, o'quvchilarning dil so'zlari yangraydi. "Sizni ardoqlaymiz, aziz ustozlar" adabiy musiqali kecha bayramimizga yakun yasaydi. Umid qilamizki, bu quvonchli va hayajonli damlar barchamizda katta taassurot qoldiradi.

- O'quvchilar darslardan bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazadilar?

- Litseyimizda ingliz tili, matematika, kompyuter, rus tili kabi

fan to'garaklari muntazam faoliyat ko'rsatadi. Prezidentimiz asarlari, lotin alifbosidagi ko'plab badiiy kitoblari bo'lgan kutubxonamiz o'quvchilar bilan gavjum. Sport zalimiz sport anjomlari bilan jihozlangan. Basketbol, voleybol, futbol, shashka, stol tennisi kabi sport to'garaklarida o'g'il - qizlarimiz salomatliklarini mustahkamlaydilar.



Guruhlar va litseylararo o'tkaziladigan sport musobaqalarida o'quvchilarimiz yaxshi natijalarga erishyaptilar.

- Litseyingizda "o'z - o'zini boshqarish fidoiy yoshlar tashkiloti" faoliyat ko'rsatar ekan. Shu tashkilot haqida ham gapirib bering.

- Bu tashkilot litseyimiz o'quvchilarini bir maqsad yo'lida birlashtiradi. Yaqinda bilimi, namunali xulqi bilan barchaga namuna bo'ladigan Sanjar Bekovni uning ramziy prezidenti qilib sayladik.

Tashkilotning reja va dasturlari haqida Sanjarning o'zi bilan suhbatlasha qolinglar, dedilar Roza opa.

Biz Sanjarni samimiy qutlab, suhbatga chorladik:

- Tengdoshlarim, ustozlarim menga yuksak ishonch bildirishdi. Buning uchun ulardan minnatdorman. Litseyimiz nufuzini yanada oshirishni o'z oldimga asosiy maqsad qilib qo'ydim. Yana kutubxonamizni yanada boyitishni, to'garaklar sonini ko'paytirishni, boshqa litseylar sharoitlari bilan tanishib, o'quvchilari bilan mustahkam aloqa o'rnatishni, litseylararo musobaqa va olimpiada o'yinlarida ishtirok etish, o'quvchilari-mizning dam olish soatlarini maroqli va mazmunli o'tkazishlariga erishishni, respublikamizning tarixiy shaharlariga sayohatlar uyushtirishni rejalashtir-ganmiz. Bu ishlarni bir o'zim bajarolmayman albatta. O'quvchilar tomonidan saylangan vitseprezidentlar, ichki ishlar, moliya, soliq, tashqi ishlar, mehnat, sport, sog'liqni saqlash vazirlari, xo'jalik sudi raisi, tashqi ishlar vaziri, qizlar klubi prezidenti, "O'smirlar klubi" prezidenti va boshqalarning ko'magiga tayanaman...

Bu hali hammasi emas. Litseyimizning o'z pul birligi "Golden"i bor. Har bir guruh bir firma hisoblanadi. Bu firmalar-

ning o'z direktori, menejeri, hisobchisi bo'lib, o'quvchilar firmaning xodimlaridirlar. Litseyda o'quvchilar bajargan har bir ish uchun ularga firma direktori tomonidan "Golden" beriladi. Bir golden 5 so'mga teng. O'quvchilar o'zlari ishlab topgan goldenlariga o'quv yili yakunida bo'lib o'tadigan yarmarkadan o'zlari uchun kerakli o'quv qurollarini harid qiladilar.

Litseyimiz direktori hamda yoshlar tashkiloti prezidentining gaplarini tinglar ekanmiz, davlatimizning bizlarga ko'rsatayotgan g'amho'rlikidan, o'z navbatida yoshlarimizning ham izlanuvchan, yangilik sari intiluvchanliklaridan, qolaversa, shunday ajoyib bilim dargohida o'qish bizga ham nasib qilganidan qalbimiz bir olam g'ururga to'ldi.

Fursatdan foydalanib, litseydagi barcha o'qituvchilarimizni, maktabdagi muallimlarimizni, qolaversa, respublikadagi barcha ustoz va murabbiylarimizni kasb bayramlari bilan chin dildan muborakbod etamiz.

Dunyodagi jamiyki ezgu niyatlar xamrohingiz bo'lsin, aziz ustozlar!

Saida JABBOROVA,
Mashhura QAHHOROVA
suhbatlashdi.

BILAG'ON BOLALAR DIQQATIGA!

Siz «Tong yulduzi» gazetasi sahifalarida uchraydigan xatolarni albatta topib, bizga yozib yuboring. Chunki atayin bilag'on va topag'onligingizni sinash maqsadida harflar tushirib qoldiriladi yoki qo'shib qo'yiladi. Tinish belgilari o'z o'rnida ishlatilmaydi... Maqsadimiz: bilimli bo'ling. Chunki osmonni yulduzlar, yerni esa bilimlilar bezar.

ULUG'BEKLAR MAKTABI

Uyning ostonasidan ma'lum, deganlaridek keng hovliga kirishingiz bilanoq gulzorda barq urib o'sib yotgan rayhonlarning muattar hidi dimog'ingizga uriladi. Tekis yo'lkalaru pokiza maktab sahnidan tortib deraza oynalariga did bilan tutilgan pardalargacha diqqatingizni tortadi. O'ng qo'llarini ko'ksiga qo'yib «Assalomu allaykum!» deya salom berib o'tayotgan ziyrak o'g'il-qizlarni ko'rib, havasingiz yanada ortadi.

Biz hikoya qilayotgan bu o'quv dargohi Andijon tumanidagi Mirzo Ulug'bek nomli 3-gimnaziya maktabidir. Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq tashkil etilgan bu bilim maskanida ilmga chanqoq, iqtidorli o'g'il-qizlar o'qiydi. Gimnaziya fizika, matematika, informatika yo'nalishiga ixtisoslashtirilgan bo'lib, ingliz tilini o'rganishga ham katta e'tibor beriladi. O'qituvchilar jamoasi har bir darsda bolalarga puxta bilim berishga, ularning o'qish-organishga bo'lgan ishtiyoqini yanada kuchaytirishga harakat qiladi. O'qituvchilar o'z ustozlari - Matlubaxon Qo'ziyeva, Faridaxon Qoraboyeva, Faridaxon Sobirova, Qamariddin Nuriddin kabi mehnatsevar va izlanuvchilardan juda-juda minnatdor.

Gimnaziya da bolalarning o'qishi, dars tayyorlashi, dam olishi, vaqtida ovqatlanishi, yaxshi tarbiya olishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Kerakli jihozlar bilan ta'minlangan o'quv xonalari,

kompyuter sinfi, shina mosxonasi va yotoqxona o'quvchilar xizmatida. Bu yerda tartib-intizomga juda qattiq rioya qilinadi, erishilayotgan yutuqlarning sababi ham shunda bo'lsa kerak deb hisoblayman. Har bir o'qituvchi ham, o'quvchi ham o'z vazifasini yaxshi biladi, bajarayotgan ishiga mas'uliyat bilan yondashadi. Buning boisi, gimnaziya direktori Munavvarxon Hoji aya Rahimova o'ta talabchan va o'zi ham tinib-tinchimas, ishchan ayol. Onaxon

katta yoshda bo'lishlariga qaramay sira tinib-tinchimaydi, boshqalardan ham shuni talab qiladi.

Hoji ayaning so'zlariga quloq tuting-a, bunga o'zingiz guvoh bo'lasiz...

Avvalo rahbar izlanishdan to'xtasa jamoaning harakati ham sustlashadi, deydi gimnaziya direktori Munavvarxon Hoji aya Rahimova. - Shuning uchun katta yoshda bo'lishimga qaramay, o'z ustimda ishlashdan charchamayman. Bolalarni juda yaxshi ko'raman, ularga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbatim menga kuch-quvvat bag'ishlaydi. Agar o'qituvchi loqayd bo'lsa, o'ziga ishonib topshirilgan o'quvchilarning kelajagiga befarq qarasa, bolani bir umr ruhan majruh qilib qo'yishi mumkin. Shuning uchun ularga hamisha e'tibor berish, intilishlarini rag'batlantirib borish kerak. Bolaning qalb ko'zini ochish, uning e'tiborini o'z atrofida va dunyoda bo'layotgan voqea-hodisalarga jalb etish, adabiyot va san'atga mehr uyg'otish, ma'naviy dunyosiga ruhiy ozuqa

SENI MAQTAGUM!

berish biz pedagoglarning asosiy burchimizdir. Buni his qilmagan o'qituvchi yoki tarbiyachi maktabdan uzoqlashgani ma'qul. O'z shogirdi qalbiga yo'l topa olish uchun esa o'qituvchi doimo izlanishda, tinimsiz harakatda bo'lishi darkor.

Ba'zan o'z ishiga beparvo yondashadigan hissiz o'qituvchini ko'rsam, yuragimni bir narsa «jiz» etib kuydirgandek bo'ladi. Uning o'rni bolalar orasida emas, degim keladi. Maktablarga, mahallalarga borsangiz qalbi yoniq, ko'zlari charaqlab turgan bolajonlar juda ko'p. Ularni so'ndirib yo'yamaslik, aksincha, Vatanimiz ravnaqi uchun xizmat qiladigan yetuk shaxslar qilib tarbiyalashimiz zarur. Prezidentimiz va hukumatimiz xalq ta'limi sohasiga shunchalik jiddiy e'tibor berib, cheksiz g'amxo'rliklar qilayotgan ekan, biz pedagoglar bunga o'z mehnatimiz va izlanishlarimiz bilan «labbay» deb javob berishimiz farzdird.

Men bu yerda yana bir narsaga o'quvchilarimning o'zaro ahil-inoq bo'lib yashashlariga ham katta e'tibor beraman. Ular orasida samimiy va chin



do'stona munosabatlarni qaror toptirishga harakat qilib kelyapman. «Urushqoq bola gimnaziya mizda o'qimaydi», degan gapni bolalarim o'zlari uchun shior qilib olishgan. Bu yerdagi o'zaro do'stlik ulg'ayib, Vatan farzandlari orasidagi o'zaro hamjihatlikni mustahkamlaydi, deb o'ylayman. Bolani hech qachon aldamaslik, unga ishonish kerak. Shundagina u rostgo'ylikka o'rganadi, haqiqatni himoya qila oladi va o'z kuchiga ishonadi, dedi gimnaziya direktori.

Gimnaziya o'quvchilari bilan suhbatlashar ekanman, bu yerdagi tartib intizom va talabchanlik o'z mevasini berayotganiga iqror bo'ldim. Bilimdon, zukko va hozirjavob bolalar havasimni keltirdi.

Oddiy maktablardagi o'qituvchilar ham talabchanlikni kuchaytirib, tengqurlarimizning ta'lim-tarbiyasiga jiddiy e'tibor bersalar, juda yaxshi bo'lardi. Chunki,

hozir ba'zi bolalar maktabdan uzoqlashib, o'qishga qiziqmay, har xil ishlar bilan shug'ullanib yurishibdi. Ularning ota-onalari, o'qituvchilari, o'z holiga tashlab qo'yishmasa, biror foydali mashg'ulot bilan shug'ullanishga qiziqtirishsa, menimcha, yaxshi bo'lardi. Chunki niholga e'tibor berib, yaxshi parvarish qilinsa kelajakda chiroyli daraxt bo'lib, mo'l-ko'l hosil beradi. Bizlar ham bir niholmiz-ku, to'g'rimi?

Shunday qilib, zukko va bilimdon bolajonlarni tarbiyalab, voyaga yetkazayotgan bilim maskanidan bir olam taassurotlar bilan qaytar ekanman, 2-sinfda o'qiyotgan. jajji kichkintoylarning qo'llari ko'ksida, shavq bilan kuylayotgan mana bu satrlari hamon qulog'im ostida jaranglayotgandek.

Ushbu tinch yer, osmon uchun,

Erkin, quvnoq zamon uchun,

Shunday shirin davron uchun,

Rahmat sizga, Islom bobo,

Hurmat sizga, Islom bobo.

Ma'rifat Qosimova,
Andijon Davlat tillar pedagogika instituti
Ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i.

Durdona Azimova,
6-sinf o'quvchisi:

Men yaqinda qishlog'imizga qaytib ketmoqchi bo'ldim. Doim o'onajonimning yonida bo'lgim keldi-da. Shunda onam meni o'zlari ishlaydigan maktabga olib bordilar. Tengqurlarim orasida hatto karrani yod bilmaydiganlari ham bor ekan. Bolalarning o'qishga nisbatan beparvoligini ko'rib, gimnaziya qolishga qaror qildim. Bu yerda biz hech qachon bekor o'tirmaymiz. Dars tayyorlaymiz, to'garaklarga qatnashamiz, turli tadbirlar o'tkazamiz. Har oyda fanlardan sinov topshiramiz. Xullas, bo'sh vaqtning o'zi yo'q.

Men kelajakda yaxshi inson bo'lib, Vatanimga, xalqimga biror manfaat keltirsam deyman. Bizning baxtimizga ustozlarimiz omon bo'lishsin, shunday ilm maskanlari ko'payaversin.



Shohruh IBROHIMOV,
7-sinf o'quvchisi:

- Aziz ustozlarimiz bizning yaxshi inson bo'lib yetishishimiz uchun intiladilar. Buning uchun biz ulardan minnatdor bo'lishimiz kerak. Ayniqsa direktorimizning jonkuyarligi, hammamizga o'z farzandlaridek bir xilda mehribonlik ko'rsatishi bizga juda yoqadi. O'qituvchilarimizning talabchanligi, qattiqqo'lligi hech ham malol kelmaydi. Chunki, biz yaxshi o'qisak, yaxshi tarbiyalansak, hayotda qoqilmaymiz, xalqimizning kuniga yaraydigan munosib o'g'il-qizlar bo'lib kamol topamiz.

Bu yerdagi sharoitlar ham bizga yoqadi, bizni tinimsiz o'qishga, bilim olishga ruhlantirib turadi. Vaqtida ovqatlanamiz, dam olamiz, televizor ko'ramiz, sport bilan shug'ullanamiz. Dam olish xonasida do'stlarim bilan dars tayyorlashni juda yaxshi ko'raman. Chunki, bilmaganlarimizni bir-birimizdan o'rganamiz, bahslashamiz.

Rustamjon Qulmamatov,
6-sinf o'quvchisi:

- Men bu yerga Izboskan tumanidagi Yangi zamon qishlog'idan kelganman. Fizika, matematika, ona tili, ingliz tili fanlariga juda qiziqaman. Ayniqsa, kompyuter sinfidagi mashg'ulotlarda mazza qilaman.

Gimnaziya'dagi biz uchun yaratilgan shart-sharoitlardan ota-onalarimiz ham xursand.

Men kelajakda huquqshunos bo'lmoqchiman. Shuning uchun o'zimni har tomonlama chiniqtirib borishim kerak deb o'ylayman. Bu yerda shaxmat-shashka o'ynashni o'rganib oldim. Endi esa karate to'garagiga ham qatnashyapman.

Men istardimki, shunday shart-sharoitlar hamma maktablarda ham yaratilsa...

Akmaljon BEGALIYEV,
5-sinf o'quvchisi:

- Birinchi sinfda o'qib, endigina kitob o'qiydigan paytlarimda, Rustam akamlarning "O'qish kitobi"ni so'rab olib, qiziqib varaqlardim. Bir kuni ona haqidagi she'rni o'qib qoldim-da, "qani, men ham yozib ko'ray-chi" deb, onamga atab she'r yozdim. Onajonim kelganlarida o'qib bersam, u kishi juda-juda xursand bo'ldilar. Shu-shu she'riyatga qiziqib qoldim.

Men yana Vatanimiz tarixini o'rganishga qiziqaman. Ibn Sino, Beruniy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Kamoliddin Behzod, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk zotlar yashab o'tgan bu aziz yurtimizda. Ularning tarixini o'rganish, buyuk xizmatlarining qadriga yetish bizning burchimizdir. Ularga munosib vorislar bo'lib yetishish esa bizning eng katta orzularimizdir.



-Qayerlarda bo'lding? - so'radi Behzod.


-Germaniya va Italiyada. Avval Germaniyaning Frankfurt shahriga bordim. Bilasizlarmi, shahar ozoda va juda rivojlangan. Odamlari esa tartibli va rejali ekan. Keyin Italiyaga yo'l oldik. Frankfurtdan Milangacha samolyotda 45 daqiqa uchdik. U yerda dadamning hamkorlari Tato va Verjino janoblari kutib olishdi. Biz Neapl, qadimiy shaharlaridan biri Geni, Varadzeda bo'ldik. U joylar qadimiy binolarga boy go'zal shaharlar ekan. XIV-XVII asrlarda qurilgan binolarini tomosha qilar ekanman, xuddi ertaklar olamiga tushib qolganday sezdim o'zimni.

-Kemalarni ham ko'rgandirsizlar-a?

-Ha, XVI asrdagi qaroqchilar kemasida suratga ham tushdim. Kema bahaybatligi-dan uni uch soatga yaqin aylanib, ko'rib chiqdim.

-Mehmondorchilik quyuq bo'lgandir-a? - deydi Jahongir.

-Italianlarning milliy taomlari



Кема менинг ҳукимимда

"SPAGETTI" BILAN SIYLASHADI

Yosh sayohatchi Umidjon Zokirov Ijtimoiy yo'nalishdagi Respublika maxsus gimnaziyasining 3-sinfida tahsil oladi. O'zi shirintoy, zehni o'tkir bola.

Rasm chizishga, sportning karate, shaxmat-shashka, tennis turlariga qiziqadi. Ingliz tilini o'rganishga astoydil bel bog'lagan. Chunki yana bir sayohat taraddudida turibdi. O'zbekistonning Xitoydagi elchixonasida ishlaydigan tog'asining taklifiga binoan yaqinda oilasi bilan Xitoyga boradi. U do'stlari bilan o'z taassurotlarini o'rtoqlashayotgan vaqtida ularga men ham quloq tutdim.



Doniskul

spagetti va pitssa ekan. Albatta shunday

taomlar bilan mehmon qilisharkan. Lekin mazasi juda ham shirin. Taomlariga turli maxsus ziravorlar qo'shib, xushta'm va lazatli tayyorlashar ekan.

Chet ellik do'stlar orttirish uchun albatta horijiy tillarni puxta o'rganish lozimligini shunday tushunib yetdimki, ayniqsa italyanlardan biror nima so'rasangiz, u erinmay yarim soat tushuntiradi. Tilini bilmasamda, biroq fikrini tushunib yetdim. Baribir

italyancha bilmaganimga o'kindim.

Bundan


buyog'iga albatta ingliz tilini mukammal o'rganaman deb ahd qildim. Keyin yana boshqa tilni o'rganishga harakat qilaman. Ayniqsa, diplomatik muomalani yaxshigina o'zlashtirish kerak. Chunki muomalada gap ko'p. Inson chet ellik hamkorlar oldida uyalib qolmasligi kerak. Ovqat vaqtida pichoq-vilkani to'g'ri ushlaydan tortib, muzokaralarda o'zini tutishgacha, "Smoking" kiyinishdan tortib, sochni gellab tarashgacha hamma-hammasi



Палмазор оралаб

diplomatik muomalaga kiradi. Yana mening «tishim o'tmaydigan» bir qancha talablar haqida gapirmasam ham bo'ladi. Xullas, dunyo ko'rsang, o'zingning kamchiliging ham kaftdek ko'rinib qolarkan. Kelinglar, do'stlarim, jahonga chiqaylik. Buning uchun bilim olishdan charchamaylik.

Yosh sayyoh Umidjon ZOKIROVning gaplari meni ham o'yantirib qo'ydi. Hozirdanoq shunday



Буни ҳам удалайман

fikrlayaptimi, demak, kelajakda yaxshiginadi plomat chiqishi aniq undan.

Muharrama PIRMATOVA yozib oldi.

EZGULIKNING KO'RINISHLARI



Оёқ кийимни АСРАНГ

Ҳаммада бор оёқлар,
Уларга керак кийим,
Албатта оёқ кийим.
Оёқ кийим бўлмаса,
Ҳинолмаймиз биз ёзда,
Оёқ кийим бўлмаса,
Юролмаймиз аёзда.
Оёқ кийим дўстимиз,
Авайланг, уни асранг.
Бош омон бўлсин учун,
Оёқ кийимни асранг.

Ёш шоира Ҳилола Абдуҷабборовва дунёга ҳайрат билан қарайди. Унинг ёзган шеърларини мен эзгуликнинг кўринишлари, деб атадим. Чунки Ҳилоланинг ҳар бир сатрида бу бетакрор дунёга покиза нигоҳ, одамларга яхшилик тилаш, ота-онага, устозга чексиз эҳтиром куйланади. Мустақил юртимизда Ҳилолага ўхшаш адабиётга ихлосманд, шеърятга ошуфта ёшлар кўп. Аммо, ҳақиқий шоир бўлиш бахтига тинимсиз меҳнат қилган одам эришади. Мен Ҳилолани шеърятнинг нури йўлларидаги илк қадами билан қутлайман.

Зулфия МУМИНОВА.

БАҲОР

Баҳор келганида, очилур гуллар,
Баҳор келганида сайрар булбуллар.
Баланд тоғдан оқар шилдираб сувлар,
Иссиқ ўлкалардан келади қушлар.
Баҳор фаслидадир туғилган куним,
Нақадар гўзалсан, фасли баҳорим.

БУВИЖОНИМ БАДАВЛАТ

Чўпчак айтар узоқ тунлар,
Жонажоним, бувижоним.
Дуо қилар барчамизни,
Жонажоним, бувижоним.
Тўйларимиз тўрида,
Тўкиб юринг сиз савлат.
Эртақлару набарага
Бувижоним бадавлат.



ТАБРИК

Онажоним байрамига,
Гуллар тердим
Кучоқ-кучоқ.
Онажоним умр кўрсин,
Гўзал, дилбар,
Узоқ-узоқ.
Бошингиздан нур сочай,
Мен гулингиз, лолангиз.
Тунлар йўлингиз ёритай,
Мен қизингиз - Ҳилолангиз.
Ҳилола АБДУҶАББОРОВА.



Feruza JALILOVA:

-Yodimda bor, o'quvchilik davrimizda biror tadbirmi, tantanami bo'ladigan bo'lsa, ustozlarimiz, mavzuga moslab she'r yodlab kelinglar, deya topshiriq berishardi.

*Aziz bolalar!
Har kimki to'g'ridir - shodlikka yetdi, kimki egri bo'lsa - yetolmay ketdi... Narimon Orifjonov ham to'g'riligi bois o'tgan umr yo'llaridan xotirjam holatda qarilik gashtini surmoqda. Keksa jurnalist «Tong yulduzi»ning ashaddiy muxlisi, Narimon akaning tavallud kunlari arafasida yosh muxbirimiz Nargiza Akbar qizi, gazeta bosh muharrir muovini Feruza Jalilova hamda telejurnalist Tohir Mullaboyevlarning suhbatiga quloq soldi va o'zi ham ustoz haqidagi fikrlarini qalamga oldi.*

gazeta va jurnallarida, radio to'liqlari-yutelevideniye ko'rsatuvlarida dolzarb, ta'sirchan maqolalari, ajoyib hikoyalari, tarjima asarlari, dostonu qissalari bilan faol qatnashib, serqirra ijodkor sifatida shakllandi. "Yurakka tekkan o'q", "Tonggi nido", "Zilzila", "Zubayda va men", "Salom, Pifagor" kabi asarlari sermahsul ijodining

taqdim etdi. O'zbekiston xalq artisti, bolalar bastakori Shermat aka Yormatov kuy bastalagan talaygina qo'shiqlarini "Bulbulcha"ning o'g'il-qizlari zavqu shavqqa to'lib kuylashadi...

Ha, bolalar,

sizning fao'l jurnalistlaringiz ta'kidlashayotganidek, Narimon Orifjonov ko'plab jurnalistlar, taniqli adiblar bilan

inson bo'lishi kerak"-deya uqtirardilar mudom. Narimon aka bu borada har bir matbuot xodimi Ziyod Yesenboyev, Maqsud Qoriyev, Yayra Sa'dullayeva singari el-yurt e'tiboriga, e'zoziga sazovor qalamkashlarning tajribalarini qunt bilan o'rganishlarini uqtirardilar.

Hozirda respublikamizdagi turli matbuot nashrlarida samarali mehnat qilib

ajoyib qalamkashlar

Rauf Tolib, Dadaxon

Yoqubov, Mirvosil Odilov, Umida Abduazimova, Temur Ubaydullo va boshqalar ham Narimon akani o'zlariga ustoz bilib, faxrlanganlar.

Narimon akaning ko'p yillik samarali mehnatlari munosib taqdirlangan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi unvoniga, Respublika jurnalistlar uyushmasining mukofotiga, o'nlab nishonu yorliqlarga sazovor bo'lganlar.

Yillar o'z hukmini o'tkazib, sochlariga oq oralasa-da, Narimon aka hamon izlanishdalar, ijod qilib tolmaydilar. Turmush o'rtoqlari Nafisa opa, qizlari Mahfuzaxon bu borada ularga hamroh, hamfikir bo'lib kelishyapti. Har bir yangi asarning yaratilishida ularning ham xizmatlari bisyor. - Narimon Orifjonov salkam 70 yillik mazmunli umrining yarim asrini ijodga bag'ishlagan ajoyib inson, iqtidorli shoir, mohir tarjimon bo'lish bilan birga ibratli xonadon sohibi, besh farzandning mehribon otasi, 17 nabiraning suyukli buvajonisi hamdir. Ardoqli adibimiz nafaqat farzandlari-yu nabiralari, balki barchamizning e'zozimizdalar. Ularga samimiy tilaklar bildirib, "bolalarbop asarlar yozishdan hormang, Narimon bobo!" deb qolamiz.

Nargiza AKBAR
qizi yozib oldi.

BOLALARNING KATTA DO'STI

Uyga kelib, kitob javonimizdagi she'riy kitoblarni bir-bir varoqlab, she'r qidirishga tushardik. Menda sevimli shoirimiz Narimon Orifjonovning "Eng baxtli kun", "Assalom yulduzlar", "Oq kaplar", "Tuyg'ular" kabi she'riy to'plamlari bor edi. Ulardan o'zim uchun ham, dugonalarim uchun ham she'rlar saralab kelardim. Qo'shiqqa aylangan o'nlab she'rlarini kuylab, davralarga fayz kiritardik...

Oradan yillar o'tdi, ulg'ayib voyaga yetdik. Endilikda ana shu kitoblarni farzandlarimiz sevib o'qishyapti, she'rlarini yod olib, maktab va bog'chadagi tadbirlarda aytib yurishibdi. Demoqchimanki, Narimon akaning asarlari, qissa, hikoya, dostonlari badiiy tugalligi, mazmunan teranligi, ta'sirchanligi bois avloddan - avlodga o'tib kelyapti, yangi-yangi ma'no, mohiyat kasb etyapti. Taqdir taqozasi bilan matbuotda ishlab, Narimon aka bilan yaqindan tanishish, u kishi bilan bir safda ishlash baxtiga muyassar bo'ldim...

Tohir MULLABOYEV:

-Narimon Orifjonov 1932 yilda Toshkent shahrida, xizmatchi oilasida tavallud topdi. O'rta maktabni muvaffaqiyatli, keyinchalik Toshkent Davlat pedagogika oliygohining tarix-filologiya fakultetini imtiyozli diplom bilan tamomladi. Talabalik yillaridayoq she'riy mashqlar qoralab, hikoyalar yoza boshlagan adib mana qariyb 50 yildirki, adabiy faoliyatini jurnalistika sohasi bilan birgalikda olib bordi. Respublikamizning qator

bo'ldi. Uzoq yillar mobaynida "Tong yulduzi" gazetasi hamda "Gulxan" jurnallarida ishlash jarayonida bolalar ruhiyati bilan yaqindan tanishdi. Ko'plab asarlarining bolalarga bag'ishlangani ham shundan.

Feruza JALILOVA:

-Narimon aka bolalar dramaturgiyasi rivojiga ham salmoqli ulush qo'shganlar, desam mubolag'a bo'lmaydi. Ularning qo'g'irchoq teatrlariga mo'ljallangan "Do'stlikdadir kuch" ertak pyesasi 1979 yilda bolalar yiliga bag'ishlab o'tkazilgan Respublika ko'rik-tanlovida ikkinchi mukofot bilan taqdirlangandi. Biz bu asarni miriqib tomosha qilganmiz. Adib tarjimonlik borasida ham o'zini sinab ko'rdi. Bolgar yozuvchisi Machuroyning "Quvnoq jo'jaxo'rozlar", Tor va Shandorlarning "Chili Chala tog'aning mo'jizalari", Xmilnitskayaning "Schrli anor", Abdukarim Rahmonovning "Karvon shamoli" kabi asarlarini zo'r mahorat bilan rus tilidan o'zbekchaga o'girib, bolajonlarga

hamkorlikda ishlash jarayonida mehnatsevarliklari, samimiy va dilkashliklari bilan barchada ijobiy taassurotlar qoldirib kelganlar. Ularni tanigan bilganlarning qay biri bilan suhbatlashmang, Narimon aka haqida faqat ijobiy fikrlar bildirishlari tayin.

- Narimon aka matbuot uchun tug'ilgan. Serqirra qalam sohiblaridan biri,- deydi O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov.-Men Narimon akani ustoz sifatida hurmat qilaman. Zero, jurnalistlar safiga qo'shilishimda ularning qimmatli maslahatlari men uchun darsu saboq bo'lgan. "Gazeta xodimi eng avvalo o'ta bilimdon, o'z ishining ustasi, kamtar, halol



SHOGIRDLAR KAMOLI, USTOZLAR BAXTI

Inson zoti borki ilk bor maktab ostonasiga qadam qo'ygani kunini va uni quchoq ochib kutib olgan birinchi o'qituvchisini o'zgacha bir quvonch bilan esga oladi.

Jahongirning ham birinchi sinfga borganiga mana qariyb bir oycha bo'lib qoldi.

- Maktabga borish yaxshi ekanmi? - deb so'raganimizda, Jahongir shunday javob berdi:

- Mening omadim bor ekan, chunki ham Nilufar opamga, ham Nodira opamga Alifbo saboqlarini o'rgatgan muallima Xadicha opa mening ham birinchi sinf o'qituvchimi bo'ldilar. Ular juda ham mehribon va shirin so'zdirlar.

O'quvchidan, ayniqsa, maktabga ilk qadam qo'ygani murg'ak qalb egasidan bunday fikrlarni eshitish o'qituvchining

eng katta yutug'idir.

O'quvchilar mehrini qozona olgan, ularga bor muhabbatini, qalb-qo'rini ulashishga muvaffaq bo'lgan, Hamza tumanidagi 255 - maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi Xadicha opa Komilova mana 29 yildirki, yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish borasida tinmay mehnat qilib kelmoqda. Har bir o'quvchining ko'ngliga yo'l topa bilish, ularni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash opaning eng asosiy maqsadidir. Darslarni o'tayotganda asosiy e'tiborni bolaning mustaqil fikrlashiga, uning ongini rivojlantirish borasida turli usullarni qo'llaydi.

Xadicha opa maktabda "Yil o'qituvchisi" g'olibidirlar. Uning mehnatlari maktabda bo'lib o'tadigan tadbirlarda rag'batlantirilib

kelinyapti. Maktab ilmiy bo'lim mudiri bo'lib ishlaganda ham asosiy e'tiborni ko'proq ochiq dars mashg'ulotlari o'tishga qaratadi. O'shanda bu maktab tuman bo'yicha birinchi o'rinni qo'lga kiritgan edi.

Hozirgi kunga kelib Xadicha opaning shogirdlari turli sohalarda mehnat qilib kelishmoqda. Ular ustozlarini bayram kunlarida doim eslashib, tabriklagani kelishadi. Shogirdlarning kamolini ko'rib, Xadicha opaning boshi osmonga yetadi. Biz esa o'quvchilarning har tomonlama kamol topishi uchun tinmay mehnat qilayotgan bu kabi ustozlarimizni ulug' ayyomlari bilan qutlab

Ozoda
MUHAMMEDOVA.

IQTISODDAN SHE'RIY TOPISHMOQLAR

Iste'molchi xohishi,
Bozorlarda bilinar.
Imkoniyati bo'lsa gar,
Aytin, bu nima bo'lar.

(1999)

Ko'p yillik muddatga, bankim menga pul berdi,
Vaqti kelib bankim mendan, pulini so'rab keldi.

(K1999)

Biror mulkka egalik qilganlarda qog'oz bor,
Lekin mulkka ko'p kishi egalikka da'vogar.

(H1999)

Ishlab chiqqan molingni bozorlarga olib chiq,
Iste'molchi xohishini xurjuningga solib chiq.

(1999)

Korxonaning foydasiga sherik bo'lar oyma-oy,
Lek qonuniy bo'lib u qilmang hecham kinoya.
Ish haqidan mol-mulk, hatto mashinadan ham,
Tushumlar yig'ar doim, shudabudjetga sarmoya.

(2019)

Nima qilay chiqimlarim, tushumlardan oshib ketdi,
Oshib ketdi qarzarim, boyligim tugab bitdi.
Harakatim sust bo'lib, ishlarim orqa ketdi,
Nima bo'ldi menga deb, korxonam sinib bitdi.

(B1999)

Kelishib uchrashishdi, xaridor va sotuvchi,
Tovarlarni sotib oldi, mehnatkash iste'molchi.
Aytin bu qanday makon, kelishtirsa hammani,
Rozi bo'lib mehnatiga bu yerdagi xizmatchi.

(B090)

Hamkasbliklar jam bo'lishib, mijozlarni kutishar,
Tinim bilmay jovrashib, mijozlarga talashar.
Bu nima, kurash, mijozlar kammi deymen,
Halol qilgin kurashingni, shunda oftob yorishar.

(K1999)

Rustam MURODOV.

Jizzax shahridagi

6-o'rta maktabning iqtisod fani o'qituvchisi.

TOTO XAT JO'NATADI

Toto o'rtog'iga xat jo'natmoqchi bo'ladi. U ko'chaga chiqib, marka sotib olib xatni yashikka tashlaydi. Uyga kelgach onasi so'radi:

- Toto markani xatning o'ng tomoniga yopishtirgandirsan?
- Yo'q, oyi, chap tomoniga yopishtirdim, chunki mening o'rtog'im g'arbda yashaydi.

TOTO XALOSKOR

O'qituvchi xaloskorlik to'g'risida gapirdi va o'quvchilardan so'radi:

- Oralaringda shunday xaloskorlardan bormi?

Toto qo'lini ko'tarib, javob qildi:

- Men, janob. Men u kuni baliqni suvdan xalos qilib olgandim.

MENI GAZETADA

YOZISHIBDI

- Bilasanmi do'stim, men haqimda gazetada yozishibdi!

- Rostdanmi?

- Ha-da, mana eshit: shahrimizning poyezdlari bir yilda 1.452.549 kishini o'z manzillariga eltib qo'yadilar. Shunday bo'lgach, o'shalarning ichida men ham borman-ku!

BIZNING TARJIMA

o'ldirding, deylik. Partaning ustida nechta chivin qoldi?

- Bitta, men o'ldirgan chivin.

SUT ACHIDI

Toto kanikulini qishloqda o'tkazar edi. U bir kuni sut olib kelish uchun fermaga bordi. Sutni olib keldi-da, pishirishga qo'ygani edi hamki, sut irib qoldi.

Ajablanarli joyi yo'q, bechora sigirlar kuni bo'yi quyoshda turgach, suti achimay nima qilsin!

MARIUSNING OVI

Marius Afrikada qilgan ovlari haqida o'rtog'iga so'zlaridi:

- Bilasanmi, Oliv do'stim, men hayotimda hech qachon shunchalik qo'rqmagan edim. Yolg'iz edim, bunday qaragam, katta sher men tomonga qarab kelayapti, men pichog'imni va qurolimni olib tashlandim...

- Shergami?

- Yo'q, qishloqqa boradigan so'qmoqqa.

TOTO CHIVIN

O'LDIRADI

O'qituvchi Totodan so'radi:

- Partaning ustida sakkizta chivin bor, O'shalardan birini

AN'ANA NIMA DEGANI?

Piyero dadasining hozirgi ba'zi yoshlarning an'analarga xilof ish qilayotganliklari haqida gapini tinglab o'tirar ekan

ОЛИС ЙЎЛЛАР

Поездлар ўтиб борар,
Манзили олис, равон.
Узоқлардан чорлайди,
Қадимий юрт Андижон.
Вагонларга осилиб,
Судралади лаҳзалар.
Юракка кўчиб ўтар,
Бир самовий ларзалар.
Мен болалик шаҳрининг,
Гиёҳларин оралаб.
Сизга етгандим олис,
Манзилларни қоралаб.
Манзилингиз доимо,
Бўлсин ёруғ, чароғон.
Доб сизга ушбу шеърни,
Ёзди Ботир Рамазон.
Ботир РАМАЗОНОВ,
Юнус Ражабий номли
музыка билим юрти
талабаси.

so'radi:

- Dada, aytin-chi, an'ananing o'zi nima?

- An'ana Piyero, avloddan-avlodga o'tib turadigan narsaga aytiladi.

- A, unday bo'lsa meni sizning kichik bo'lib qolgan shimingizni kiyib yurishim ham an'ana ekan-da!

MEN BAND EDIM

Ona: - Sharlo o'rtog'ing juda yomon bola bo'libdi-da. Mushukning dumiga kastyulani bog'lab qo'yib, uni quvlab yuribdi. O'ylaymanki, sen unaqa emassan-a?

Pol: - Albatta, oyijon.

Ona: - Nega sen Sharloning do'sti bo'lib turib bu yomon ishga yo'l qo'yding?

Pol: - Men o'sha payt band edim.

Ona: - Qanday?

Pol: - Men mushukni dumini ushlab turgan edim.

TROLLEYBUSDA

Trolleybusda odam juda ko'p edi. To'ladan kelgan bir kishi oriq kishini u yoqdan-bu yoqqa itarardi. Shunda oriq kishi dedi:

- Ba'zi kishilarning og'irligiga qarab haq to'lashga majbur qilsalar...

To'ladan kelgan kishi javob qildi:

- Unda o'n gramm ham kelmagan sizday bir kishiga trolleybus to'xtab ham o'tirmasdi.

NON MAGAZINIDA

Bir odam non magaziniga kirib, sotuvchidan bir yarim kilo non berishni so'radi. Sotuvchi bitta nonni olib, xaridorga berdi. Xaridor uni tortib ko'rib dedi:

- Non bir yarim kilo emas.
- Hechqisi yo'q, dedi sotuvchi, ko'tarib ketishingiz osonroq bo'ladi.

Xaridor hech narsa demadi va sotuvchiga o'ttiz frank pul berdi.

- Bir frank kam, dedi sotuvchi pulni olarkan,

- Hech qisi yo'q, sanashingiz osonroq bo'ladi, javob qildi xaridor.

Fransuz tilidan

Sharofat BOTIROVA
tarjimasi.

SOVRINLAR O'Z EGALARINI TOPDI



Aziz o'quvchilar, gazetamizda "Onam haqida so'z" insholar tanlovi e'lon qilinganidan va yaqinda uning g'oliblari aniqlanganidan xabaringiz bor. To'garagimizning bu galgi mashg'ulotiga ana shu tanlovning g'oliblarini taklif qildik. Sovrinlarni tahririyatimiz a'zosi, serhimmat tadbirkor Ergashvoy aka Sariqov topshirdilar. G'oliblarni samimiy qutlab, ularga, shuningdek, to'garagimiz a'zolariga ham samimiy tilaklar bildirdilar. To'garak a'zolari esa ijodkor tengdoshlari shodligiga sherik bo'lib, qarsaklar bilan olqishlashdi.

- Bizning ham xuddi shunday iqtisodiyot yo'nalishidagi to'garagimiz bor. Uning dastlabki bitiruvchilari hozirda chet ellarda ishlab, tajriba orttirib kelishyapti. To'garak degani, mening nazarimda keng imkoniyat degani hamdir. Ming-

minglab ijodkor o'g'il-qizlar orasidan bunday imkoniyat aynan sizlarga nasib qilibdi. Uning qadriga yetib, ijod olamiga chuqurroq kirib borishga, siru sinoatlariga oshno tutinishga intiling, - deya nasihat qildilar Ergashvoy aka.



ТАЪЗИМ

Меҳри дарё, қалби қуёш,
Кўрдик сизда сабру бардош.
Эъзоз этар кекса-ю ёш,
Азиз устоз, сизга таъзим.
Юзингиздан нур ёғилар,
Қалбингиздан кўр ёғилар,
Лабингиздан дур ёғилар,
Азиз устоз, сизга таъзим.
Фан боғининг чин боғбони,
Барча фазилятлар қони,
Биз ёшларнинг дили, жони
Азиз устоз, сизга таъзим.
Кўкка етгай кўлларингиз,
Биз шоғирдлар - гулларингиз,
Ойдин бўлсин йўлларингиз,
Азиз устоз, сизга таъзим.

Чўлноной МЕЛИҚЎЗИЕВА.

G'oliblarning quvonchiga Farg'onalik ijodkor Cho'lponoy Meliq'oziyeva ham oshno bo'ldilar. Asl kasbi shifokor bo'lsada, bolalarbop she'rlar ham mashq qilib turadigan Cho'lponoy opaning "Ozod yurtning bolasimiz" nomli lotin alifbosidagi mitti to'plami nashrdan chiqibdi. O'quvchilar undagi she'rlarni navbatm-navbat o'qib chiqishdi, ijodkor opalariga o'z she'rlaridan o'qib berishdi.

Feruz JALILOVA.

BESHİK TO'YGA

Ey, bulbuljon,
Cho'p tashiysan,
Ayt qayoqqa?
Sakrab - sakrab,
Oshiqmagin,
Kel buyoqqa?
- In quryapman,
jajjigina
Polaponga.
Ko'zim nuri,
qalbim qo'ri -
Bolajonga.
Mehnatlarim,
topganlarim,
Bolam uchun.
Qo'ng'iroqdek
ovozi bir
olam uchun.
Shoshayapman,
endi men ham
boray uyga.
Erta boring
siz albatta
beshik to'yga.

*O'lmasoy JO'RAYEVA,
234-maktabning 6 - sinf
o'quvchisi.*


KUZ

Kuz faslida mevalar,
Yetilib g'arq pishibdi.
Fursat topib bolalar,
Bog'larga kirishibdi.
Bog'bon bobolariga,
Ular yordam berishdi.
Savatlarini to'ldirib,
Mevalarni terishdi.
Bobo esa ulardan,
Juda mamnun bo'libdi.
Bolalarning maqtovdan,
Ko'ngli zavqqa to'libdi.

*Dilrabo
DO'STQOBILOVA,
Yakkasaroy tumanidagi
118-maktabning 4-sinf
o'quvchisi.*



Tengdoshingiz, Chilonzor tumanidagi 200-maktabning 8-sinf o'quvchisi Nazira UMAROVA chizgan suratini «Kuz manzarasi» deb nomlabdi.



«Танаффусда» Шайхонтохур туманидаги 169-мактабнинг 5-синф ўқувчиси Зулфия ЭТАМБЕРДИЕВА чизган сурат.

**ХАНДАЛАР
ОНА ТИЛИ ДАРСИДА**

Ўқитувчи:
- Қўшма гап қанақа бўлади?
Ўқувчи:
- Тўғри гапга ёлғон-яшиқлар қўшилса, қўшма гап бўлади.
Х Х Х
- Кунлар ҳам анчагина узайиб қолди, - деди она-си ўғлига.
- Неча метрга узайибди, ойижон, - сўради ўғли ҳайрон бўлиб.

Х Х Х
- Асалим, шакарим, новвотим, - дея эрқалатди она қизини.
- Демак, ширинлик егим келганда ўзимни ўзим ялаб юрсам бўларкан-да? - сўради қизалоқ.
*Феруза ОБИДОВА,
Янгийўл тумани,
2-ўрта мактабнинг
9-синф ўқувчиси.*

NOMOZSHOMGUL

- Go'zal jamolingni nechun ey gulim,
Doim yashirasan quyoshdan asta.
Undan qilasanmi yoki andisha,
Balki xafadirsan, yo diling xasta?
Har shom gulgung chehrangni ochib,
Sahargacha intiq kutasan kimni?
Shoshi berkitasan tongda jamoling,
Kimdan yashirasan go'zal visoling?
Kun bo'yi mudraysan quyosh taftida,
Kuchlimi shunchalar sendagi xayo.
Ko'z yumib bu dunyo tashvishlaridan,
Xoli qolishlikni istaysanmi yo?
- Yo'q, xafa emasman quyoshdan aslo,
Andisha qilmasman undan mutlaqo
Kunduzlar mensiz ham go'zal, chamanzor,
Tunni obod qilib beraman jilo.

*Dilfuza MAJIDOVA,
154 - maktab o'quvchisi.*

**ФАЛАБАНИНГ
ЙЎЛЛАРИ**

Бобом бугун сандиқдан,
Орденларини олдилар.
Тақдилару бир нафас,
Чуқур ўйга толдилар.
Ёдларига тушдим,
Оғир уруш йиллари?
Ахир жанг майдонида,
Қолган битта кўллари.
Жанг - жадалда бобом ҳам,
Фалаба деб тўккан қон.
Бу кунларга етишиш,
Ахир бўлмаган осон.
Кўп йил ўтди орадан,
Барини хотирларми?
Фалаба деб жон берган,
Ўзидек ботирларни.

Гулноза МАМАЖОНОВА, Миробод туманидаги 299-мактаб ўқувчиси.

ГЎДАК НОЛАСИ

Меҳрибонлик уйи, ҳовли четида,
Ўтиради маъюс тортиб бир бола.
Билмам нелар кечар унинг қалбидан,
Отам деб, онам деб чекади нола.
Аста юриб бордим унинг ёнига,
Бошини силадим дардин олай деб.
У бошин кўтармай аста шивирлар:
Ота-онам ёнингизда қолай деб.
Мураббийлар берган иссиқ меҳрдан,
Дейди: униб-ўсиб, ўн ёшга тўлдим.
Қорним тўк, устим бут, ҳар нарса бисёр,
Аммо она меҳрига мен ташна бўлдим.
*Хуришдбек ХЎЖАХОНОВ,
Андижон вилояти, Андижон шаҳри.*

O'ZBEKISTONIM

Men tug'ilib o'sgan joy,
O'zbekiston atalmish.
O'n ikki yulduz, bir oy,
Bayrog'iga qadalmish.
Paxtasi va bug'doyi,
O'rtasida Xumo qush.
Gerbdadir ular joyi,
Mening yurtim serquyosh.
Shu yurtda kamol topgan,
Furqat, Zulfiya, Cho'lpon.
Ogahiy va Zavqiylar,
Fitrat, Hamid Olimjon.
Sanasam yo'q adog'i,
Shoir yozuvchilarning.
Albat bordir jazosi,
Tinching buzguvchilarning.

*Mahfuza BOZOROVA,
Jizzax viloyati,
Jizzax shahridagi Otoulo
Oxunboboyev nomli 6- o'rt
maktabning 9-sinf o'quvchisi.*

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MATBUOT QO'MITASI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI, «KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» XAYRIYA JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR: Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI: Shuhrat AHMEDOV, Jamoliddin FOZILOV, Oynisa MUSURMONOVA, Komil YUSUPOV, Mukarrama MURODOVA, Sunnatilla QO'ZIYEV, Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi» nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi» nashriyot uyi kompyuter bo'limida terib sahifalandi. Hajmi A-3, 2 bosma taboq. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida 58.519 nusxada ofset usulida bosildi. Korxonaning manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41. Buyurtma № Г-2892 Gazetani Abduhamid ABDUG'AFFOROV sahifaladi. Navbatchi: Feruz ODILOVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi № 000137 Manzilimiz: 700129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-62-34. 144-63-08